

**TRANSPORT GEOGRAFIYASI FANINING O'RGANISH
OBYEKT, PREDMETI, METODLARI VA VAZIFALARI.**

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya
va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi
Shokirova Mohichehra*

Annotatsiya: Ushbu maqola transport geografiyasi fanining mohiyatini, uning o'rganish obyekti, predmeti, asosiy metodlari va dolzarb vazifalarini kompleks tarzda ochib beradi. Transport geografiyasi ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning muhim tarmog'i sifatida transport tizimlarining hududiy tashkil etilishi, joylashuvi, rivojlanish qonuniyatlari va jamiyat hayotidagi rolini o'rganadi.

Maqolada transport geografiyasining o'rganish obyekti - transport tizimlari va tarmoqlari, transport tugunlari, transport-iqtisodiy aloqalar, transport geografik o'rni va transport infratuzilmasi ekanligi aniqlanadi. Fanning predmeti esa transport tizimlarining hududiy tashkil etilish qonuniyatlari, ularning shakllanish omillari va jamiyat iqtisodiyoti hamda hududiy rivojlanishga ta'siridir.

Kalit so'zlar: Transport geografiyasi, transport tizimi, transport infratuzilmasi, transport-iqtisodiy aloqalar, hududiy tashkil etilish, metodlar, vazifalar, hududiy rivojlanish.

KIRISH

Transport geografiyasi turli xil metodlardan, jumladan kartografik, statistik, qiyosiy-geografik, tizimli tahlil, matematik modellash va geografik axborot tizimlari (GAT) kabi usullardan foydalanadi. Fanning asosiy vazifalari transport infratuzilmasini optimallashtirish, transport-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, transport tizimlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash va hududiy rivojlanishni prognozlashdan iborat. Iqtisodiy geografik jihatdan esa transport asosan uch nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Birinchidan, hududiy majmualarning ajralmas tarkibiy qismi, bo'g'ini sifatida; ikkinchidan, transport-iqtisodiy infratuzilma, aniqrog'i ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishdagi dastlabki shart-sharoiti, omili ko'rinishida, Uchinchidan, milliy iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan biri shaklida o'rganadi. Zero, transport geografik muhitga ta'sir etuvchi, uni o'zgartiruvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun transportni geografik jihatdan o'rganilayotganda mintaqalarning tabiiy sharoitlarini tahlil etish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, o'z navbatida, tabiiy sharoitlar ham transport tarmoqlarining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa yo'llarni qurishda joynining re'lef xususiyatlari, geomorfologik holati va boshqalar hisobga olinadi.

Asosiy qism: Transport geografiyasiga oid dastlabki nazariy ishlar asosan yigirmanchi asrning 20-30 yillarida nemis olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Ular transport geografiyasining predmeti va geografiya fanlari tizimidagi o'rnini aniqlashga harakat qilganlar. Biroq, nemis geograflari transportni moddiy ishlab chiqarish tarmog'i ekanligini hisobga olishmagan. Ular transport geografiyasini asosan «inson geografiyasi» yoki «antropogeografiya» ning bo'limi sifatida qarashgan. Masalan, A. Gettner transport geografiyasi geografiyaning uzoq davrlardan beri eng yaqin va hatto sevimli tarmog'i ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi va uning hududiy (xronologik) jihatlariga katta e'tibor beradi 1960 yillarda transport tarmoqlari geografiyasini o'rganish ancha jonlandi. Jumladan, havo transporti geografiyasi bilan amerikalik Kenneta Sili, dengiz transporti bilan esa shved Gunnar Aleksanderson, temir yo'l transporti geografiyasi bilan ingliz geografi Ander O'Dellalar shug'ullanishgan. Ko'rilayotgan sohaga oid dastlabki tadqiqotchilardan biri Bernshteyn-Kogon 1931 yilda transport geografiyasiga bag'ishlangan kitobini nashrdan chiqardi. 1950 yillarda xorij transport geografiyasida yangi nazariy yo'nalishlar rivojlana boshlagan. Bu davrdagi tadqiqotlarda yuk va yo'lovchi tashishni gravitatsion modeli va bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan. Transportning milliy iqtisodiyotga ta'sirini, uning mintaqaviy ixtisoslashuvining aholi manzilgohlari rivojlanishidagi ahamiyatini o'rgangan olimlardan Vilyam Bunge va Piter Xagget transport to'ri, zichligi masalalariga ko'proq e'tibor berganlar. Ba'zi chet el manbalarida transport geografiyasini madaniy landshaft elementi sifatida o'rganilganligi ham qayd etiladi. 1960 yillarda transport tarmoqlari geografiyasini o'rganish ancha jonlandi. Jumladan, havo transporti geografiyasi bilan amerikalik Kenneta Sili, dengiz transporti bilan esa shved Gunnar Aleksanderson, temir yo'l transporti geografiyasi bilan ingliz geografi Ander O'Dellalar shug'ullanishgan. Ko'rilayotgan sohaga oid dastlabki tadqiqotchilardan biri Bernshteyn-Kogon 1931 yilda transport geografiyasiga bag'ishlangan kitobini nashrdan chiqardi. Unda muallif mintaqalar transportining rivojlanishida tabiiy va iqtisodiy geografik omillar muhim ahamiyat kasb etadi, deb ta'kidlaydi.

Xulosa: Transport geografiyasi nazariy va amaliy ahamiyatga ega. U transport tizimlarini rejalashtirish, boshqarish va rivojlantirish, transport-iqtisodiy aloqalarni takomillashtirish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida transport geografiyasi fanining rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda davom etishi lozim:

- Globalashuv sharoitida transport tizimlarining o'zgarishini o'rganish.
- Raqamli texnologiyalarning transport sohasiga ta'sirini tahlil qilish.
- Transport tizimlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash.
- Hududiy rivojlanishni prognozlashda transport omilini hisobga olish.

Ushbu yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar transport geografiyasi fanining nazariy asoslarini boyitadi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Transport geografiyasi - geografiya.uz <http://geografiya.uz/uzb-iqt-ijtggeografiyasi/941-transport-geografiyasi.html>
2. Xidiraliyev K.E., Karshibayeva L.K. TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI Guliston – 2020 (49-53) betlar.
3. Isayev Akbarjon Abdulxamidovich TRANSPORT GEOGRAFIYASI (Uslubiy qo'llanma) Toshkent «MUMTOZ SO'Z» 2019